



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:5 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta’lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).

№	MUNDARIJA	Page
1.	YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA ATMOSFERAGA CHIQARILADIGAN CO₂ EMISSIYASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK <i>Xoshimov P.Z, Egamnazarova G.Sh</i>	4
2.	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDIIY MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORAZM VILOYATI MISOLIDA EMPIRIK TAHLIL <i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna, Jumaniyozov Farxodjon Rajapboy o'g'li</i>	8
3	TOSHKENT MINTAQASIGA XOS AGROTURIZM RESURSLARI HAMDA INFRATUZILMA HOLATI VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI <i>Shodiyeva Nafosat Hamza qizi</i>	14
4	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR: ASOSIY XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA IMKONIYATLARI <i>Shadmanov Zuhridin Zokirxodjayevich</i>	18
5	TIJORAT BANKLARDA ISHLAB CHIQISHDA FOYIZ XAVFLARINI BOSHQARISHINI MUSTAHKAMLASH <i>Seitnazarov Daniyar Baxadirovich</i>	22
6	УЛУЧШЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВНЕДРЕНИЯ ВОДОЭКОНОМИЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПОГИСТАН <i>Сейтназаров Бахадир Муратбаевич</i>	26
7	KORXONALAR MOLIYAVIY FAOLIYATI OPERATSIYALARINI TASNIFLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN KONSEPTUAL MODEL: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI <i>Umarova Shahnoza</i>	30
8	TRANSPORT INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHINING XORIJIY Tajribasi <i>Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi</i>	31
9	SHAXSIY SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIY Tajribasi <i>Isayeva Xolbib Boboqulovna</i>	34
10	TIBBIY SUG'URTANING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI <i>Yusupov Akbar Haydarovich</i>	39
11	MOL-MULK SUG'URTASIDA RISKLARNI BAHOLASH VA ANDERRAYTING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Tuxtarova Maftuna Yo'ldashboy qizi</i>	44
12	TURAR-JOY KO'CHMAS MULKINI GEDONIK MODELLASHTIRISHDA FUNKSIONAL SHAKL TANLOVI <i>Xushvaqtoy Jasur Shuhrat o'g'li</i>	49
13	HUDUDIIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO "YASHIL" STANDARTLAR TIZIMI <i>Salomov Abdusalom Ismatovich</i>	54
14	MILLIY TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SUBSIDIALASH TIZIMI SAMARADORLIGI <i>Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich</i>	57
15	O'ZBEKISTONDA HUDUDIIY INVESTITSIYA SIYOSATINING IQTISODIY-INSTITUTSIONAL TAHLILI VA NATIJADORLIK MODEL (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA) <i>Xudayberganov Soxibnazar Kimyanazarovich</i>	62
16	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOVARLAR EKSPORTI TARKIBINING IQTISODIY VA TEXNOLOGIK TASNIFLAGICHLAR ASOSIDA STATISTIK TAHLILI <i>Norkulov Shavkat Shakarbayevich</i>	66
17	STRATEGIK MOLIYAVIY HISOB TIZIMINI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI, KO'RSATKICHLARI VA USULLARI <i>Umarova Shaxlo Abduvaliyevna</i>	70
18	OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI SHAROITIDA FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL YONDASHUVI <i>Adizov Bobir Baxtiyorovich</i>	77
19	AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY SAMARADORLIGI <i>Qurbanov Ulug'bek Erkinovich</i>	80
20	ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISHNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Ergashev Rustam Rajabovich</i>	84

21	TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA MONITORING QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Djamalov G'ofir Oribjanovich</i>	88
22	O'ZBEKISTONDA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA NATIJADORLIK MUAMMOLARI <i>Ergashev Rustam Rajabovich</i>	93
23	O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Vaxabov Bobur Alisherovich</i>	97
24	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK FAOLIYATI TRANSFORMATSIYASI VA INSON RESURSLARI SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Salamov Islom Tashqazaqovich</i>	102
25	O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINING ISLOMIY "DARCHA" OCHISHGA TAYYORLIGINI BAHOLASH: 100 BALLIK INTEGRALLASHGAN INDEKS METODIKASI <i>Kuldashev Jahongir Kamariddinovich</i>	105
26	AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Aytmuratova Ulbike Jalgasovna</i>	110
27	НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА <i>Мамутова Айгуль Калмурзаевна</i>	115
28	O'ZBEKISTONDA DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISH JARAYONINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI <i>Xaitova Gulmira Matsalayevna</i>	119



O'ZBEKISTONDA DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISH JARAYONINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

Xaitova Gulmira Matsalayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Email: Gulmiraxaitova7788@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda davlat korxonalari sektorini isloh qilish jarayoni statistik-iqtisodiy tahlil qilingan. Xalqaro Valyuta Fondining O'zbekiston bo'yicha 2026-yilgi "Tanlangan masalalar" hisoboti va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlari asosida davlat korxonalar sektorining iqtisodiyotdagi ulushi, moliyaviy natijadorligi va tavakkalchilik darajasi baholangan. Tahlil natijalariga ko'ra, Davlat korxonalarlar aktivlari YAIMning 101 foizini tashkil etadi, biroq ularning atigi 46 foizigina rentabelli. davlat korxonalar sonini qisqartirish sur'atlari 2020–2026 yillarda 35,3% 2021–2025-yillar strategiyasida belgilangan 75 foizlik maqsaddan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Maqolada bu farqni ifodalovchi matematik hisob-kitoblarni keltirilgan hamda islohotlarni jadallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat korxonalari, xususiyashtirish, korporativ boshqaruv, fiskal tavakkalchilik, SAMA, UzAssets, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract: The article provides a statistical and economic analysis of the process of reforming the state enterprise sector in Uzbekistan. Based on the International Monetary Fund's 2026 'Selected Issues' report on Uzbekistan and data from the State Assets Management Agency, the state enterprise sector's share of the economy, its financial performance and its level of risk have been assessed. According to the analysis, state-owned enterprises' assets account for 101 per cent of GDP, yet only 46 per cent of them are profitable. The pace of reducing the number of state-owned enterprises, at 35.3% for 2020–2026, is significantly lagging behind the 75% target set in the 2021–2025 strategy. The article presents the mathematical calculations illustrating this gap and develops recommendations for accelerating the reforms.

Keywords: state enterprises, privatisation, corporate governance, fiscal risk, SAMA, UzAssets, Uzbekistan's economy.

Абстрактный: В статье представлен статистический и экономический анализ процесса реформирования сектора государственных предприятий в Узбекистане. На основе доклада Международного валютного фонда «Избранные вопросы» по Узбекистану за 2026 год и данных Агентства по управлению государственным имуществом дана оценка доли сектора государственных предприятий в экономике, его финансовых показателей и уровня риска. Согласно результатам анализа, активы государственных предприятий составляют 101 % ВВП, однако прибыльными являются лишь 46 % из них. Темпы сокращения числа государственных предприятий — 35,3 % на 2020–2026 годы — значительно отстают от целевого показателя в 75 %, установленного в стратегии на 2021–2025 годы. В статье приводятся математические расчёты, иллюстрирующие этот разрыв, и разрабатываются рекомендации по ускорению реформ.

Ключевые слова: государственные предприятия, приватизация, корпоративное управление, фискальный риск, SAMA, UzAssets, экономика Узбекистана.

Kirish (Введение/Introduction).

Davlat korxonalari (DK) sektori O'zbekiston iqtisodiyotining tarkibiy qismi bo'lib, ular kommunal xizmatlar, transport va moliya kabi tarmoqlarda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, DKlarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va kafolatlar byudjetga sezilarli fiskal xavf-xatarlarni yuklaydi. 2021-yilda qabul qilingan DK islohot strategiyasi (DKIS) davlat ishtirokini raqobatbardosh tarmoqlarda 75 foizga qisqartirishni maqsad qilgan edi. Ushbu maqolada, Xalqaro Valyuta Fondi va SAMA rasmiy ma'lumotlari asosida, islohotning amaldagi natijalari strategik maqsadlar bilan qiyoslanadi va DK sektorining moliyaviy holati statistik-matematik usullar yordamida baholanadi.[1]

Tadqiqot maqsadi O'zbekistonda DK sektorini isloh qilish jarayonining miqdoriy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, erishilgan natijalar bilan strategik maqsadlar o'rtasidagi farqni matematik jihatdan asoslash va islohotlarni jadallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy tahlil hamda matematik hisoblash usullaridan o'rtacha yillik qisqarish sur'ati CAGR, nisbiy ko'rsatkichlar, strukturaviy tahlil foydalanildi. Axborot bazasini Xalqaro Valyuta Fondining "Republic of Uzbekistan: Selected Issues" hisoboti (IMF Country Report No. 26/153, 2026-yil may) hamda unda keltirilgan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va UzAssets ma'lumotlari tashkil etadi. DK sonining vaqt bo'yicha o'zgarish sur'ati quyidagi formula bo'yicha hisoblandi:[2]

$$CAGR = (N_t / N_0)^{1/n} - 1$$

bunda: N_t — davr oxiridagi DK soni; N_0 — davr boshidagi DK soni; n — davr uzunligi (yillarda).

SAMA ma'lumotlar bazasiga ko'ra, 2024-yil yakunlariga kelib DK aktivlari YAIMning 101 foizini tashkil etdi, bunda moliyaviy DKlar asosan 9 ta davlat tijorat banki ulushi 52 foizni, nomoliyaviy DKlar ulushi esa 49 foizni tashkil etdi. Nomoliyaviy DKlar aktivlari tarkibida kon-metallurgiya sektori eng katta ulushga 31% ega bo'lib, undan keyin neft-gaz va elektroenergetika sektorlari har biri 19% turadi.[3]

DK sektori bandlik sohasida ham sezilarli o'rin tutadi: 2024-yilda 566 351 kishi DKlarda band bo'lib, bu umumiy bandlikning 4 foizini, rasmiy bandlikning 8 foizini va markaziy hukumat bandligining 19 foizini tashkil etdi. Bandlik tarkibida kon-metallurgiya 18%, yo'l-transport 16% va neft-gaz 14% sektorlari yetakchilik qiladi.

Moliyaviy natijadorlik nuqtai nazaridan, SAMA bazasidagi 2148 ta DKdan atigi 982 tasi 46% 2024-yilda rentabelli deb qayd etilgan, qolganlari norentabelli, faoliyat yuritmaydigan yoki tugatish jarayonida bo'lgan korxonalar hisoblanadi. Byudjetga to'langan dividendlarning taxminan 80 foizi kon-metallurgiya, 9,5 foizi neft-gaz sektoridan tushgan, qolgan barcha boshqa rentabelli tarmoqlarga jami 10,5 foiz to'g'ri kelgan — bu DK portfelining foydaliligi bir necha tor tarmoqqa yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi.[4]

1-jadval

O'zbekistonda DK sonining dinamikasi, 2020–2026 yillar[5]

Ko'rsatkich	2020-yil	2026-yil (fevral)
Davlat korxonalari (DK) umumiy soni, ta	2 965	1 917
Xususiylashtirish orqali chiqarilgan, ta	—	515
Tugatilgan (likvidatsiya), ta	—	1 313
Qayta tashkil etilgan, ta	—	757
Nizom fondiga/DXH ga o'tkazilgan, ta	—	260

2020–2026-yillar (fevral) davomida DKlar umumiy soni 2965 tadan 1917 taga qisqardi. Bu holatda DK sonining umumiy qisqarish darajasi quyidagicha hisoblanadi:

$AN = (2965 - 1917) / 2965 \times 100\% \approx 35,3\%$


O'rtacha yillik qisqarish sur'ati (CAGR, n ≈ 6,1 yil) esa quyidagicha: $CAGR = (1917 / 2965)^{(1/6,1)} - 1 \approx -6,9\%$ (yiliga)

2021-yilda qabul qilingan DK islohot strategiyasi raqobatbardosh tarmoqlarda davlat ishtirokini 2025-yilga qadar 75 foizga qisqartirishni maqsad qilgan edi. Haqiqiy erishilgan natija (35,3%) bilan strategik maqsad (75%) o'rtasidagi farq quyidagicha aniqlanadi:

$Farq = 75\% - 35,3\% = 39,7 \text{ foiz punkti}$

Ushbu natija DK islohotlari sur'ati strategik rejalashtirilgan sur'atdan deyarli ikki baravar past ekanligini ko'rsatadi va mavjud institutsional va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli emasligidan dalolat beradi.[6]

UzAssets tomonidan boshqariladigan 21 ta eng yirik nomoliyaviy DK jami aktivlari YAIMning 48%iga teng bo'yicha 2021–2023-yillar auditlangan IFRS moliyaviy hisobotlari asosida “salomatlik tekshiruvi” tahlili o'tkazilgan. Natijalarga ko'ra, korxonalarining 4 tasi 19,0% barqaror past tavakkalchilik toifasida, 10 tasi 47,6% o'rta tavakkalchilik toifasida, 7 tasi 33,3% esa barqaror yuqori tavakkalchilik toifasida joylashgan (1-diagramma, o'ng panel). Yuqori tavakkalchilikka ega korxonalar asosan elektroenergetika va kimyo tarmoqlarida faoliyat yuritadi hamda likvidlilik va to'lovga qobillik ko'rsatkichlari bo'yicha zaiflikka ega.



1-diagramma. DK sonining qisqarishi va yirik DKlarning tavakkalchilik toifalari bo'yicha taqsimoti[7]

2-jadval.

O'zbekiston DK sektorining asosiy ko'rsatkichlari [8]

Ko'rsatkich	Qiymati
DK aktivlarining YAIMga nisbati (2024)	101%
shu jumladan moliyaviy DKlar	52% YAIM
shu jumladan nomoliyaviy DKlar	49% YAIM
Rentabelli DKlar ulushi (2148 tadan)	46% (982 ta)
DKlar bandligi — umumiy bandlikda	4%

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

- International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Selected Issues. IMF Country Report No. 26/153. Washington, D.C., 2026.
- International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation — Press Release; and Staff Report. IMF Country Report No. 26/152. Washington, D.C., 2026.
- SAMA ma'lumotlar bazasi; IMF Country Report No. 26/153 (2026) asosida muallif tomonidan tuzilgan.
- IMF Country Report No. 26/153 (2026) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
- IMF Country Report No. 26/153 (2026) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-martdagi 166-sonli "Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (2021–2025-yillar uchun).
- Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (SAMA). Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati va davlat mulkidan foydalanish holati bo'yicha konsolidatsiyalashgan hisobot, 2024.
- World Bank. Global Business of the State Database, 2025.

Ko'rsatkich	Qiymati
DKlar bandligi — rasmiy bandlikda	8%
DKlar bandligi — markaziy hukumat bandligida	19%
2021–2024 xususiylashtirish tushumlari	≈ 2,5 mlrd. AQSH dollari

O'tkazilgan tahlil DK islohotlarining maqsadli sur'atlardan orqada qolishiga sabab bo'lgan quyidagi asosiy omillarni aniqladi:

- Yumshoq byudjet cheklovlari DKlar subsidiyalari, imtiyozli kreditlar va davlat kafolatlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan foydalanishda davom etmoqda, bu esa ularning samaradorlikni oshirish bo'yicha rag'batlarini susaytiradi.
- Tartibga solish va korporativ boshqaruvdagi bo'shliqlar SAMA, tarmoq vazirliklari va mahalliy hokimiyat o'rtasida egalik funksiyalarining takrorlanishi javobgarlikni loyqalashtiradi; nazorat kengashlarida mustaqil a'zolar yetarli emas.
- Norentabellik muammosi DKlarning 54 foizi (2148 tadan 1166 tasi) norentabel, faoliyat yuritmaydigan yoki tugatish jarayonida, bu esa davlat aktivlaridan olinayotgan daromadning pastligini ko'rsatadi.
- Xususiylashtirishning tor qamrovi 2021–2024-yillardagi xususiylashtirish tushumlarining katta qismi kichik DKlar, qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan yer uchastkalari va ko'chmas mulk hisobiga shakllangan, yirik strategik DKlar xususiylashtirilishi cheklangan bo'lib qolmoqda.
- Teng bo'lmagan raqobat muhiti DKlarning imtiyozli moliyaviy va nomoliyaviy sharoitlari xususiy sektor va xorijiy investorlar uchun teng raqobat muhitini shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Выводы и предложения).

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda DK sektorini isloh qilish jarayoni ma'lum darajada ijobiy dinamikaga ega ekanligini (2020–2026 yillarda DK soni 35,3 foizga qisqardi), biroq bu sur'at 2021-yilgi strategiyada belgilangan 75 foizlik maqsaddan 39,7 foiz punktga orqada qolayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, DKlarning atigi 46 foizigina rentabelli bo'lib, yirik nomoliyaviy DKlarning uchdan bir qismi yuqori fiskal tavakkalchilik toifasida qolmoqda.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- DK islohot strategiyasining amalga oshirilishi ustidan yagona muvofiqlashtiruvchi organ (masalan, SAMA) nazoratini kuchaytirish va yillik monitoring hisobotlarini ommaviy e'lon qilishni institutsionallashtirish.
- Yumshoq byudjet cheklovlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish — subsidiyalari, imtiyozli kreditlar va kafolatlarni bozor shartlariga muvofiqlashtirish.
- Yuqori tavakkalchilik toifasidagi 7 ta yirik DK uchun individual moliyaviy sog'lomlashtirish dasturlarini ishlab chiqish, xususan elektroenergetika va kimyo tarmoqlarida.
- Yirik strategik DKlarni IPO va strategik investorlar orqali xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish, shu orqali xususiylashtirish tushumlari tarkibini kengaytirish.
- Nazorat kengashlarida mustaqil a'zolar ulushini oshirish va korporativ boshqaruv standartlarini xalqaro amaliyotga muvofiqlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, DK sektorini isloh qilishni jadallashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, fiskal tavakkalchiliklarni kamaytirish va xususiy sektor rivojlanishi uchun teng sharoitlar yaratishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.